O'zbek xalq o'yinlari bolalarni mehnatsevarlikka tayyorlaydi	638
Safarova Nigora Oxunjonovna, O'ktamova Sabina Azizjon qizi	
Boshlang'ich sinflarda tenglamalar yechish mavzusida 5E modelidan foydalanish	641
Saidova Mohinur Jonpo'latovna, Mansurova Umida Mansur qizi	
Boshlang'ich sinf tarbiya darslarida integrativ yondashuv	646
Saidova Gavhar Ergashovna	
Ijodiy topshiriqlar boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy qobiliyatni rivojlantirish omili sifatida	649
Shoyeva Yulduz Amin qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini rivojlantirishda iboralar ustida ishlashning didaktik mezonlari	652
To'rayeva Sanobar Sulaymonovna	
Boshlang'ich sinflarda texnologiya fanini o'qitishda texnik ijodkorlikni shakllantirish	657
Tursunova Nozima Ilxomovna	



Individual yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish mexanizmlari.....	661
<i>Xaydarova Malika Djamshitovna</i>	
O'qish savodxonligi darslarida etnopedagogik qadriyatlarning o'rni va ahamiyati	665
<i>Xayrullayeva Dilnoza Nurmat qizi</i>	
Изобразительное искусство Узбекистана на занятиях русского языка как эффективный средство развития речи и формирование эстетической культуры студентов.....	669
<i>Дустова Дилдора Собиржановна</i>	
Моделирование уроков с применением стратегий развития критического мышления	674
<i>Рузиева Майрам Амриловна</i>	
Тема "Развитие духовно-творческого потенциала ребенка как фактор самореализации в социуме".....	678
<i>Хасанова Гулшод Касимовна</i>	
Amaliy mashg'ulot jarayonida talabalarning boshqaruv ko'nikmalarini shakllantirish.....	682
<i>Narimbaeva Lola Kuzibayevna</i>	
Developing Feedback Literacy Through Technology-Mediated Feedback in L2 Writing: A Mixed-Methods Approach.....	686
<i>Sabokhat Rakhimova Mirzokhid kizi</i>	



INKORPORATSION YONDASHUVLAR ORQALI BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHISIDAGI KASBIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI


Jo'rayeva Dilnoz Raxmidinovna

 Buxoro davlat pedagogika instituti
"Boshlang'ich ta'lim" kafedrası o'qituvchisi

<https://orcid.org/my-orcid?orcid=0009-0007-4008-2521>

Annotatsiya: Mazkur maqola hozirgi kunda boshlang'ich sinf ta'limini inkorporatsiya qilish haqida ko'p gapirilmoqda. Maqolada fanlararo integratsiya, texnologiya fanining maqsadi, boshlang'ich sinf o'quvchilarini texnologiya darslari orqali bilim berishda o'zaro fanlararo aloqadorlikni integratsiyalash orqali vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, hozirgi rivojlanayotgan davrda insonlarning texnologiya faniga bo'lgan e'tiborini kuchaytirish zarurligi to'g'risida fikrlar keltirilgan. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonida yuzaga keladigan muammolar va ularga yechimlar tahlil qilinadi. Hozirgi ta'lim tizimida kasbiy kompetentlikni shakllantirishning ahamiyati va uning ta'lim jarayoniga qo'shgan hissasi ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: inkorporatsiya, kasbiy kompetentlik, pedagogik kompetensiya, psixologik bilim, metodik ko'nikmalar, innovatsion o'qitish, zamonaviy texnologiyalar, boshlang'ich sinf, vatanparvarlik, ma'naviyat, ta'lim, tarbiya fani, darslik, integratsiya, ta'lim samaradorligi, integratsion darslar.

Abstract: This article is currently being discussed a lot about the incorporation of primary education. The article presents ideas on interdisciplinary integration, the purpose of technology, the need to educate primary school students in the spirit of love for the homeland through the integration of interdisciplinary connections in teaching students through technology lessons, and the need to increase people's attention to technology in the current developing era. The problems that arise in the process of developing the professional competence of a future primary school teacher and their solutions are analyzed. The importance of forming professional competence in the current education system and its contribution to the educational process are considered.

Key words: incorporation, professional competence, pedagogical competence, psychological knowledge, methodological skills, innovative teaching, modern technologies, primary school, patriotism, spirituality, education, upbringing, textbooks, integration, educational effectiveness, integrative lessons.

Аннотация: В этой статье речь идет о текущих дебатах по поводу включения начального образования в общее образование. В статье излагаются идеи о междисциплинарной интеграции, назначении технологий, необходимости воспитания учащихся начальной школы в духе любви к Родине посредством интеграции междисциплинарных связей в обучение учащихся на уроках технологий, а также необходимости повышения внимания людей к технологиям в современную развивающуюся эпоху. Анализируются проблемы и пути их решения, возникающие в процессе формирования профессиональной компетентности будущего учителя начальных классов. Рассматривается важность формирования профессиональной компетентности в современной системе образования и ее вклад в образовательный процесс.

Ключевые слова: инкорпорация, профессиональная компетентность, педагогическая компетентность, психологические знания, методические навыки, инновационное обучение, современные технологии, начальная школа, патриотизм, духовность, образование, воспитание, учебники, интеграция, эффективность образования, интеграционные уроки.

KIRISH

Fanlararo aloqa va integratsiyaning maktablarda o'qitish va tarbiyalashdagi ahamiyati juda ko'p pedagog olimlar tomonidan ko'rib chiqiladi. Boshlang'ich sinflarda ona tili, o'qish, matematika, texnologiya darslari inkorporatsiya qilinsa, ham yaxshi natijaga erishiladi. Bunda ham o'quvchi darsni yaxshi tushunadi. Inkorporatsiya

ratsiya – fanlararo bog'liqlikdir. Fanlararo bog'liqlik asoslari tabiatni to'la holda o'quv darsliklarda ko'rsatish va tushuntirish zaruratidan paydo bo'lgan. Fanlararo bog'liqlik nazariyasini ishlab chiqishda K.D. Ushenskiy juda katta ta'sir ko'rsatdi. Ushbu metodika rivojida X.V. Stoyunin, N.F. Bunakov, V.I. Vodovozov va boshqa pedagoglar samarali ish olib bordilar. Hozirgi vaqtda ta'limni modernizatsiyalash jarayonlarini amalga oshirish o'qituvchilarning kasbiy, shaxsiy va ijodiy salohiyatini yangilashni taqozo etmoqda. Bunga sabab jadallik bilan rivojlanib, yangilanib borayotgan axborot asrida ma'lumotlarning tez eskirishi, ishchi kuchini texnika bilan o'rin almashinishi, sun'iy intellektning insonlar vazifasini bir qismini bajargan holda o'z ustida ishlamaydigan xodimga o'rin qoldirmayotgani va inson tomonidan bajarilayotgan ko'p ishlarni kompyuterlashtirilayotganini misol qilib keltirishimiz mumkin. Zamonaviy jamiyatda ro'y berayotgan tub o'zgarishlar, uning yuqori rivojlanish dinamikasi, ijtimoiy ishlab chiqarishni texnik jihatdan qayta jihozlash, tubdan yangi texnikalarni joriy etish, ta'limni rivojlantirishga qodir bo'lgan faol va ijodiy shaxsni tarbiyalash zarurati bilan to'qnashadi. O'zini o'zi rivojlantirish, tarbiyalash, yangi ma'lumotlarni mustaqil ravishda idrok etish va baholash, qarorlar qabul qilish, yangi professional g'oyalarni yaratish bo'lajak o'qituvchilarning kasbi va shaxsi oldida turgan muhim vazifasidir. Ana shunday insongina jamiyatni taraqqiyotning yangi chegaralari sari yetaklay oladi.

Boshlang'ich sinflarda texnologiya darsi orqali vatanga sadoqat hissini, irodalilik, mafkuraviy immunitet, shuningdek, ularning shaxsiy, hissiy, nutqiy, jismoniy, ijodiy qobiliyatlarini rivojlanishi hamda mehr-oqibatlik, mas'uliyatlilik, bag'rikenglik, huquqiy madaniyat, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarni bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich shakllantirish va oshirish, shu bilan birga ma'naviy tarbiyani amalga oshirishda o'z xalqining milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlariga hurmat, atrof-muhitga nisbatan ehtiyotkorona munosabatni kamol topishida ota-ona, tarbiyachi, o'qituvchi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, bo'lajak pedagogning mutaxassislik (kasbiy) kompetensiyasi mavjud bo'lib, u o'qituvchining asosiy tashkil etuvchisi hisoblanadi. Hozirgi vaqtda u juda kam o'rganilayotgan muammolardan biridir. Ana shunday masalalardan biri bu bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga kompetentli yondashuvni aniqlash va davlat talablarining asosiy qoidalariga munosib holatda uning tuzilmaviy modelini ishlab chiqishdan iborat. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligini aniqlash ushbu tushunchani o'rganishga bag'ishlangan ba'zi bir tadqiqotlarga e'tiborni qaratamiz. Kasbiy kompetensiya pedagogik muammo sifatida o'rganilgan tadqiqotlarda asosan, o'qituvchining xususiyatlari tahlil qilingan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

V.I. Baydenko "kasbiy kompetentlik" tushunchasini quyidagicha tavsiflagan: o'z mutaxassisligi bo'yicha faoliyat yuritish uchun zarur bo'ladigan bilim, ko'nikma, malaka va qobiliyatlarga, kasbiy muammolarni qisman hal etishda bir vaqtda avtonomik va egiluvchanlik xususiyatlarga ega bo'lish; kasbiy shaxslararo muhitda hamkasblar bilan hamkorlikni rivojlantirish; insonga hozirgi zamon mehnat muhitida ish faoliyatini muvaffaqiyatli bajarish imkonini beruvchi bilimlar, xususiyatlar va ko'nikmalarning integrallashgan birlashuvi; faoliyat mezonini (sifat o'lchovi), qo'llash sohasi, talab etiladigan bilimlarni o'z ichiga olgan standartlarni loyihalash tuzilmasi. Yuqorida keltirib o'tilgan fikrlarni umumlashtirgan holda, V.I. Baydenko kasbiy kompetentlikni ish-faoliyat talablariga mos ravishda harakat qilishga, duch kelinadigan muammolarni mustaqil ravishda hal qilishga, shu bilan bir qatorda o'z ish-faoliyati natijalari, ya'ni mos ko'nikma va malaka, texnik usullarni baholay olishga tayyorligi va qobiliyati sifatida tushunadi.

Pedagog olimlarning fikricha, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari quyidagi funksional komponentlarni bilishi kerak: o'quv materiallarini tayyorlash va taqdim qilish; o'quvchilarni bilim va shu bilan birga tarbiya olishga qiziqitira olish; o'quvchilarda uchraydigan turlicha kamchiliklarni bartaraf etishiga ko'maklashish; muntazam ravishda o'quvchilarni nazorat qilish. Mazkur ko'rsatmalar asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tajribali pedagog olim sifatida A.K. Markovo yondashuviga ko'ra, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyati to'rtta muhim yo'nalishlarni o'z ichiga oladi: kasbiy psixologik va pedagogik bilimlarni egallash; kasbiy pedagogik malakani egallash; kasbiy psixologik ko'nikmalarni egallash; shaxsiy fazilatlar egasi bo'lish. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy faoliyatiga quyidagi mexanizmlar asosida yo'naltirilishi kerak: mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayonida; maxsus kurslar vositasida; mustaqil ta'lim vositasida; ustoz-shogird an'anasi vositasida. Bu mexanizmlarga amal qilish boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga yo'naltirish jarayonini aniq tashkil etish uchun xizmat qiladi. Shu tufayli ham boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy faoliyatiga qo'yiladigan talablar pedagogik, psixologik, sotsiologik xarakterga egaligi bilan ahamiyatlidir.

Bugungi kunda har bir pedagog har tomonlama mukammal bo'lmog'i zarur. Jumladan, boshlang'ich sinf o'qituvchisi kasbiy kompetensiyasi rivojlangan, fanlar tizimida innovatsion pedagogik faoliyatga tayyor bo'lib, o'quvchilardagi bilim, ko'nikma, qobiliyat va kompetensiyalarni rivojlantiradi.

Uning vazifalari quyidagicha: boshlang'ich sinf o'qituvchisi innovatsion pedagogik faoliyatning asosiy tushunchalari, tarkibi va mezonlarini bilishi; boshlang'ich ta'limda o'tiladigan fanlarni o'qitishda qo'llaniladigan texnologiyalarning nazariy asoslari, o'ziga xos xususiyatlarini, darajalarini bilish va o'rganish; o'quvchilarning



bilish faoliyatini shakllantirish va boshqarish yo'llarini, o'quvchilarga tabaqalashtirilgan, individual yondoshishni; boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitishda modulli, muammoli, kreativ ta'lim, didaktik-o'yinli, hamkorlikda o'qitish hamda an'anaviy ta'lim texnologiyalarini, loyiha texnologiyalarini qo'llashni; fanlarni o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalari vositalaridan, multimedia texnologiyalaridan foydalanishni; o'quvchilarni kichik guruhlarda o'qitish, ularda ijodkorlik va izlanuvchanlikni shakllantirish, o'quvchilarda mustaqil fikrlash va ishlashning shakllantirish usullarini egallashni bilishi kerak; ilmiy, ilmiy-metodik jurnallarda nashrdan chiqqan va o'quv adabiyotlarida bor bo'lgan, internet orqali berilgan o'qitish jarayonida foydalanish mumkin bo'lgan tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan masalalar haqidagi maqolalarni hamda axborotlarni mustaqil o'rganib, tahlil qilish hamda ularni amaliyotda qo'llash; istiqbolli o'qitish vositalaridan foydalanish va ularga tayangan holda boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitish texnologiyalarini loyihalash, amaliyotga joriy eta olish bilim, ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish; o'z pedagogik faoliyatlarini tahlil qila olishga, baholashga o'rgatish; tahliliy, tanqidiy, ijodiy va mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish orqali bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlashdir.

Pedagogik faoliyatdagi muloqot ta'lim muammolarini hal qilish, o'quv jarayonini ijtimoiy-psixologik ta'minlash vositasi, o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi munosabatlarni tashkil etish usuli bo'lib, ta'lim va tarbiyaning muvaffaqiyatini belgilaydi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quvchilarda motivatsiyani shakllantirish, ta'lim jarayonini rejalashtirish va baholash, axborot kommunikatsiya texnologiyalarini bilish, o'z ustida muntazam ishlash, psixologik bilimlarga ega bo'lish hamda o'z fanini mukammal bilish kabi kasbiy kompetentlik sifatlariga ega bo'lishi kerak.

A.K. Markova va B. Nazarovalar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar bevosita pedagogning kasbiy kompetentligi va uning o'ziga xos boshqa sifatlarini o'rganishga yo'naltirilgan. B. Nazarova tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra kasbiy pedagogik kompetentlikning quyidagi turlari sanab o'tiladi: maxsus yoki kasbiy kompetentlik (kasbiy faoliyatni yuqori darajada tashkil etish); autokompetentlik (o'zini ijtimoiy-kasbiy rivojlantira olish); ekstremal kasbiy kompetentlik (kutilmagan vaziyatlarda ishlay olish); ijtimoiy kompetentlik (kasbiy faoliyatni hamkorlikda tashkil etish, ijtimoiy mas'ullik). A.R. Markova tasnifi bo'yicha pedagog kompetentligi turlari. "Kasbiy kompetentlik" tushunchasi ta'lim sohasiga bir qator ilmiy-amaliy tadqiqotlar, ijodiy va psixologik izlanishlarning natijasi sifatida kirib kelgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bugungi kunda elektron ta'lim jadal rivojlanayotgan soha hisoblanadi, uning rivojlanishi 1980-yillardanoq (masofaviy o'qitish va televizion kurslar shaklida) boshlangan. Texnologiyaning izchil rivoji ta'lim jarayonida masofadagi farqni tamomila sezmaslik, talaba yoki tinglovchini auditoriya ichida his qiladigan darajadagi dastaklarni ta'minladi. Fanlararo inkorporatsion yondashuvdan foydalanish uchun pedagogik sharoitlarni aniqlash, birinchi navbatda, o'quv jarayonida o'quvchilarning faolligini talab qiladi. O'quvchilarning faolligiga erishish uchun boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quv jarayonini o'quvchilarning intellektual rivojlanishi bilan o'zaro bog'liqligini markazlashtirish uchun har bir o'quvchiga alohida e'tibor berishi lozim. Texnologiya, ona tili va o'qish savodxonligi, matematika, rus tili, chizmachilik, tabiatshunoslik va musiqa kabi fanlararo aloqalarning o'zaro ta'sirini o'z ichiga olgan integratsion darslarda, shuni ta'kidlash mumkinki, pedagogik nuqtayi nazardan ushbu o'quv fanlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlik mavjud. Bu bog'liqlik esa boshlang'ich maktab o'quvchilarida mantiqiy fikrlashni shakllantirishda bevosita namoyon bo'ladi. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarda intellektual moyilliklarni aniqlash, iqtidorli shaxslarning namoyon bo'lishi uchun qiziqishlar, iroda, e'tibor, fikr va tadqiqotlar paydo bo'ladi. Keyinchalik, fanlararo inkorporatsion yondashuvlardan foydalanish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy tafakkurining rivojlanishi kuchayadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kasbiy kompetentlik, insonning so'zlashish, yozish va boshqa tushunchalarni tushunish, tahlil qilish, tadbir olish va javobgarlikni oshirishga qodir bo'lishi bilan bog'liq jamiyatimizning yuqori darajadagi kerakli xususiyatidir. Bu, barcha sohalarda, shu jumladan ta'lim sohasida ham, muhimdir.

Ta'lim sohasidagi muhim o'zgarishlar internet paydo bo'lishi va uning hayotimizga izchil tarzda kirib kelishidan keyin sodir bo'ldi. Texnologik taraqqiyotning muhim yutuqlaridan biri sanaluvchi smartfonlar (aqlli telefonlar)dan foydalanishni, matnli xabarlarni jo'natishni va internetdan foydalanishni deyarli hamma yaxshi biladi, shuning uchun "on line" kurslarda ishtirok etish va ishlash oddiy holat hisoblanadi.

Didaktika nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadigan, elektron ta'lim va axborot texnologiyalarini joriy etish orqali samaradorlikka erishiladigan metodik maqsadlarga erishiladi: o'qitish jarayonini individuallashtirish va differensiyalash; teskari aloqa orqali o'quv faoliyatining nazoratini olib borish; o'z-o'zini nazorat qilish va baholab borish; o'quv materialini o'zlashtirish jarayonida mashq qilish va mustaqil tayyorgarlikni tashkil etish; o'quv jarayoni vaqtini tejab qolish;

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, ilmiy manbalarni o'rganish va tahlil qilish asosida, quyidagi xulosalarga kelish mumkin: O'qituvchilarning pedagogik faoliyati davomida yuzaga keladigan metodik muammolarni tan olish va hal qilish qobiliyatini ta'minlaydigan metodik kompetensiya, kasbiy kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismi. O'qituvchining metodik kompetentsiyasi o'zining tarkibiy qismlariga ega hisoblanadi va ular asosida o'qituvchining butun faoliyati davomida o'zidagi mavjud bo'lgan metodik kompetentsiyasini rivojlantirishga asos bo'lib xizmat qiladi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'zidagi uslubiy bilimlarni rivojlantirishi uchun metodik kompetensiyaning keltirib o'tilgan vazifalarini o'rganishi hamda ularni amaliy tajribada qo'llanishi orqali erishadi.

Dars jarayonida inkorporatsiya va integratsiyalashgan texnologiyalardan foydalanish natijasida pedagogik, psixologik jihatdan ta'lim maqsadlarini amalga oshirishda qulay shart-sharoitlar vujudga keladi hamda umumidaktik talablar uzviylikda bajariladi; o'quvchining vaqti, kuchi tejraladi; ortiqcha ruhiy va jismoniy zo'riqishlarning oldi olinadi, ta'lim samaradorligi oshadi. Natijada o'quvchilarda zarur ko'nikma va malakalar, tushunchalar hamda bilimlar o'quv predmetlari mazmunini uyg'unlashtirish natijasida har tomonlama chuqur o'zlashtirish imkonini yuzaga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturi (texnologiya).
2. R. Ismoilova, "Texnologiya" 3-sinf – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2023.
3. R. Ismoilova, "Texnologiya" 4-sinf – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2023.
4. Dilnoz Jo'rayeva, "Daraxtlarning kuzgi ko'rinishi" mavzusida hajmdor applikasiya tayyorlash, "PEDAGOGS" international research journal, ISSN: 2181-4027, SJIF: 4.995, 2022, noyabr.
5. Jo'rayeva D., Boshlang'ich sinf o'quvchilarini texnologiya darslari orqali ishlab chiqarish mazmuni bilan tanishtirish metodikasi, Mufallim ham uzliksiz bilimlendiri, Ilimiy-metodik jurnali, 2022, 6-san.
6. Kamilova G.A., Jo'rayeva D.R., Maktabgacha yoshdagi bolalarni sifatli maktab ta'limiga tayyorlash imkoniyatlari, "Maktabgacha ta'lim – maktab – oliy ta'lim" konsepsiyasi: muammo, yechimlar va istiqbollar xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari, 2022-yil, 9-aprel.
7. Tilavova Matlab Muxammedovna, Juraeva Dilnoz Rahmitdinovna, Развитие креативности учащихся на уроках технологии, "Maktabgacha ta'lim – maktab – oliy ta'lim" konsepsiyasi: muammo, yechimlar va istiqbollar xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari, 2022-yil, 9-aprel.
8. Dilnoz Jo'rayeva, Texnologiya fani orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarini kasb hunarga o'rgatish mazmuni, ilmiy axborotnoma, 2022.
9. Tilavova Matlab Muhammedovna, Juraeva Dilnoz Rakhmidinovna, Ways to Develop Students' Technical Creativity and Creative Skills through the Teaching of Technology, World Journal of Agriculture and Urbanization, Volume: 01 | January 2022, <https://wjau.academicjournal.io/index.php/wjau>.
10. Dilnoz Zhurayeva Rakhmidinovna, Theoretical Foundations for Ensuring Interdisciplinary Reparative Dependence in Elementary School Technology Classes, International Journal of Development and Public Policy, Published under an exclusive license by open access journals under Volume: 3 Issue: 10 in Oct-2023. Copyright (c) 2023 Author(s). This is an open-access article distributed under the terms of Creative Commons Attribution License (CC BY). To view a copy of this license, visit <https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/> | e-ISSN: 2792-3991 | www.openaccessjournals.eu | Volume: 3, Issue: 10.
11. Jo'rayeva D.R., Boshlang'ich sinf o'quvchilarini texnologiya darslari orqali robototexnikaga qiziqirish metodikasi, Mufallim ham uzliksiz bilimlendiri, Ilimiy-metodik jurnali, 2023, 6-san.
12. Dilnoz Jo'rayeva, Boshlang'ich sinf o'quvchilarini texnologiya darslarida qog'oz va karton bilan ishlash mazmuni bilan tanishtirish metodikasi, "Boshlang'ich ta'limda xalqaro tajribalar: yangi avlod darsliklari, milliy dastur va raqamli texnologiyalar integratsiyasi", Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari, 2023-yil, 19-may.
13. Rakhmidinovna, D. J. R. (2023). Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida fanlararo inkorporatsion bog'liqlikni ta'minlashning nazariy asoslari. 12th-TECH-FEST-2023 International Multidisciplinary Conference Hosted from Glasgow, England, 30th December, 2023.
14. Jo'rayeva, D., & Farmonova, S. (2023). Theoretical foundations of ensuring interdisciplinary connection in elementary school technology classes. Modern Science and Research, 2(12), 392-396.
15. Jurayeva Dilnoz Rahmidinovna, Scientific theoretical significance of innovation and integrated educational technologies in primary class technology lessons, 2024-07-18.
16. Dilnoz Jo'rayeva, Farmonova Sarvinoz, Texnologiya fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish, o'quvchi yoshlarda texnik ijodkorlikni shakllantirish, "Iqtidorli talaba O'zbekistan tayanchi" ilmiy maqolalar to'plami, 2024-yil, 4-mart.
17. Dilnoz Jo'rayeva, Norqulova Marjona, Texnologiya darslarini integratsion yondashuv asosida tashkil etish, "Iqtidorli talaba O'zbekistan tayanchi" ilmiy maqolalar to'plami, 2024-yil, 4-mart.
18. Jo'rayeva Dilnoz Rahmidinovna, Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida fanlararo inkorporatsion bog'liqlikni ta'minlashning nazariy asoslari, Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar, 2024.
19. D.R. Jo'rayeva, Texnologiya darslarida qog'ozdan amaliy ishlar bajarish orqali o'quvchilarning ijodkorligini oshirish metodikasi, "Zamonaviy ta'lim – uchinchi renessans poydevorini qurish omili sifatida" nomli ilmiy metodik tavsiyalar va maqolalar to'plami, 2024-yil, 15-aprel.
20. Zhurayeva Dilnoz Rahmidinovna, The Role of Using Negation in Improving Information Competence in Students in Elementary School Technology Classes, European Journal of Innovation in Nonformal Education (EJINE), Volume 4 | Issue 4 | Apr-2024, ISSN: 2795-8612.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.